IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: SS57561233

QARAQALPAQSTAN AWÍL XOJALÍǴÍ HÁM AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTÍ

B U Y R Í Q

22-iyun 2026-jıl. **17-13/60-sanlı**

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2026-yil 17-iyun sanasidagi 172-sonli buyrug‘ini bajarish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 2l-apreldagi “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi mustaqilligini ta‘minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-147-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorintng 2026-yi1 28-martdagi 84-son buyrug‘i (ro'yxat raqami 3829) hamda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2026-yil 17-iyun sanasidagi 172-sonli buyrug‘i ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i (A.Allakbaev)ga:

- “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi to‘g‘risidagi nizom”i (keyingi o'rinlarda - Nizom) ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 2026-yil 17-iyun sanasidagi 172-sonli buyrug‘i raxbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

- O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2026-yil 28-martdagi 84-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3829) bilan tasdiqlangan namunaviy Nizom hamda ushbu Nizomdan kelib chiqib belgilangan tartibda o‘zlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tarkibiy tuzilmasi (mutaxassisi) faoliyati to‘g‘risidagi nizomni vazirlik bilan kelishgan holda 1-ilovaga muvofiq tasdiqlasin;

2. Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filialining 2021-yil 3-iyul kungi 04-12-12-122-son buyrug‘i 1-ilovasi **bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi to‘g‘risidagi nizom” o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.**

3. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2026-yil 17-iyun sanasidagi 172-sonli buyrug‘i.

Rektor v.v.b. **N.Absattarov**

OKS2585

Institutning 2026-yil
22-iyundagi
17-13/60-son buyrug’ıga
1-ilova

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi faoliyati to‘g‘risida
NIZOMI

1. Mazkur nizom O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2026-yil 28-martdagi 84-son buyrug‘iga muvofiq ishlab chiqilgan hamda Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutining (keyingi o‘rinlarda-Institut) Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limlarining (keyingi o‘rinlarda-Bo‘lim) maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari hamda ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Bo‘lim o‘z faoliyatini qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, shuningdek, ushbu Namunaviy nizomga muvofiq amalga oshiradi.

2. Bo‘lim korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, kelib chiqish sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni amalga oshirish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda mehnat jamoasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha tizimli choralarini ko‘rishga mas’ul tarkibiy bo‘linma hisoblanadi.

2-bob. Bo‘lim faoliyatini tashkil etish

3. Bo‘lim faoliyatini tashkil etish tegishli vazirlik va idoralar hamda Institut tomonidan birgalikda amalga oshiriladi.

4. Bo‘lim o‘z faoliyatida bevosita Institut birinchi rahbariga bo‘ysunadi va uning oldida hisobdor bo‘ladi. Bo‘lim rahbar va xodimlari (keyingi o‘rinlarda – xodimlar) lavozimga tegishliligi bo‘yicha vazirlik va idoralarning birinchi rahbarlari tomonidan tayinlanadi hamda faoliyati ular tomonidan muvofiqlashtiriladi.

5. Bo‘lim “E-anticor.uz” elektron platformasi uchun tegishli vazirlik va idoralarning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalariga zaruriy ma’lumotlarni taqdim qiladi.

3-bob. Bo‘limning mas’ul lavozimlariga nisbatan qo‘yiladigan talablar

6. Bo‘limning mas’ul lavozimlariga ishga olishda ushbu xodimlarga nisbatan ish tajribasi va kasbiy kompetensiyasiga doir quyidagi minimal talablar belgilanadi:

yurisprudensiya, iqtisodiyot, moliya, soliq, audit, tizimli tahlil, menejment yoki axborot texnologiyalari mutaxassisliklari bo‘yicha oliy ma’lumot;

ichki nazorat bo‘linmasi boshlig‘i lavozimi uchun mutaxassisligi bo‘yicha 2 kamida 4 yillik, bosh mutaxassis uchun 3 yillik ish staji. Bunda komplayens va korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi ish stajiga ustuvorlik beriladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o‘quv kurslaridan o‘tganlik to‘g‘risida sertifikatga ega bo‘lishi lozim.

4-bob. Bo‘lim xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish hamda ularni intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini kelishish

7. Bo‘lim xodimlarini lavozimga tayinlashni tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish bo‘sh lavozimlarga muqobillik asosida, ochiq va shaffof tanlovlar orqali yuqori malaka va ish tajribasi hamda kasbiy professional kompetensiyalarga ega bo‘lgan, eng munosib nomzodlarni tanlash va tayinlash maqsadida amalga oshiriladi. Bo‘lim xodimlarini lavozimdan ozod etishni tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish ushbu bo‘limning mustaqilligini va xolislikni ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi.

8. Institut tomonidan tanlov bosqichlarining boshlanishi va natijalari to‘g‘risida tegishli vazirlik va idoralarga ma’lumot taqdim etib boriladi. Bunda nomzodlarning umumiy malaka talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etiladi. Tanlov o‘tkazilish kuni va vaqti to‘g‘risida tegishli vazirlik va idoralar tanlov boshlanishidan kamida 3 kun oldin xabardor qilinadi.

9. Bo‘lim xodimlarini lavozimga tayinlash O‘zbekiston Respublikasining amaldagi mehnat qonunchiligi, Institut mehnat munosabatlariga oid qabul qilingan ichki hujjatlari, ushbu Namunaviy nizomga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

10. Institut birinchi rahbari tomonidan tegishli vazirlik va idoraga bo‘lim xodimlarini lavozimdan ozod qilish haqida taqdimnoma yuboriladi. Taqdimnomada xodimni lavozimidan ozod qilish sabablari, motivlari ko‘rsatiladi va ularni tasdiqlovchi hujjatlar (xodimning arizasi, ichki mehnat tartibi qoidalarini buzganligiga oid ma’lumotlar va boshqalar) ilova qilinadi. Bo‘lim xodimlarini lavozimdan ozod qilish masalasi tegishli vazirlik va idoralarning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari xulosasi asosida amalga oshiriladi. Bo‘lim xodimlarini lavozimdan ozod qilish masalasini Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishish tavsiya etiladi.

11. Tegishli vazirlik va idoralarning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari tomonidan Bo‘lim xodimlarini lavozimidan ozod etish sabablari, motivlari yetarli emas deb hisoblangan taqdirda, shu jumladan ularning ta’qib qilinayotganligi haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lsa, ushbu masalada Bo‘lim xodimlari bilan suhbat o‘tkaziladi.

12. Quyidagilar bo‘lim xodimlarini lavozimidan ozod qilish masalasini tegishli vazirlik va idoralar tomonidan kelishishni rad etish uchun asos bo‘ladi: lavozimdan ozod etish uchun sabablar yetarli emas deb topilganda;

lavozimdan ozod etish uchun sabablar yetarli emas deb topilganda;

o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifa va majburiyatlar doirasidan tashqari vazifalarni bajarmaganligi yoki o‘ziga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarganligi uchun ta’qib qilinganligi holati aniqlanganda.

13. Taqdim etilgan hujjatlar tegishli vazirlik va idoralar tomonidan uch ish kuni ichida ko‘rib chiqilib, Bo‘lim xodimlarini lavozimdan ozod qilishni kelishish yoki kelishishning rad etilganligi sabablari ko‘rsatilgan xat yuboriladi.

14. Bo‘lim xodimlarini intizomiy javobgarlikka tortish masalasi tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Bunda Institut birinchi rahbari tomonidan bo‘lim xodimlarini intizomiy javobgarlikka tortish bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralarga taqdimnoma kiritiladi.

15. Taqdimnomada quyidagilar ko‘rsatiladi:

intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lgan holatlar va ularning tavsifi;

aniqlangan qoidabuzarlik yoki kamchiliklar bo‘yicha xizmat tekshiruvi materiallari;

xodimning tushuntirish xati yoki uni taqdim etishdan bosh tortganligi to‘g‘risidagi dalolatnoma; qo‘llash taklif etilayotgan intizomiy jazo turi.

16. Quyidagilar Bo‘lim xodimini intizomiy javobgarlikka tortish masalasini tegishli vazirlik va idoralar tomonidan kelishishni rad etish uchun asos bo‘ladi:

intizomiy javobgarlikka tortish uchun sabablar yetarli emas deb topilganda;

o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifa va majburiyatlar doirasidan tashqari vazifalarni bajarmaganligi yoki o‘ziga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarganligi uchun ta’qib qilinganligi holati aniqlanganda;

intizomiy jazo turi amaldagi qonunchilikka zid bo‘lsa.

17. Taqdim etilgan hujjatlar tegishli vazirlik va idoralar tomonidan uch ish kuni ichida ko‘rib chiqilib, Bo‘lim xodimlarini intizomiy javobgarlikka tortishni kelishish yoki kelishishning rad etilganligi sabablari ko‘rsatilgan xat yuboriladi.

5-bob. Bo‘lim xodimlari faoliyatiga nisbatan samaradorlik ko‘rsatkichlarini qo‘llash

18. Bo‘lim xodimlari faoliyatiga nisbatan samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) qo‘llanilmaydi. Bunda samaradorlik ko‘rsatkichlaridan (KPI) kelib chiqadigan ustamalar tegishli lavozim uchun belgilangan maksimal miqdorda tatbiq etiladi.

19. Bo‘lim xodimlari faoliyatiga nisbatan samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) pasaytirish masalalari tegishli vazirlik va idoralar roziligi bilan amalga oshiriladi.

20. Institut rahbari tomonidan bo‘lim xodimlariga nisbatan samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) pasaytirish bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralarga taqdimnoma kiritiladi.

21. Samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) pasaytirishga quyidagilar asos bo‘ladi.

ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etilmaganligi;

xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmaslik yoki intizomiy jazo qo‘llanilganligi;

korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi to‘liq joriy etilmaganligi yoki samarali faoliyat yuritmayotganligi; korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rilmaganligi.

22. Institut rahbari tomonidan taqdim etilgan asoslantiruvchi hujjatlar tegishli vazirlik va idoralar tomonidan ular berilgan kundan boshlab uch ish kuni ichida ko‘rib chiqilib, Bo‘lim xodimlariga nisbatan samaradorlik ko‘rsatkichlarini pasaytirishni kelishish yoki kelishishning rad etilganligi sabablari ko‘rsatilgan xat taqdim etiladi.

6-bob. Bo‘limning vazifa va funksiyalari

23. Bo‘limning asosiy maqsadi Institutda, shuningdek, uning tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ISO 37001:2025 Korrupsiyaga qarshi xalqaro standarti talablariga javob beruvchi, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va rivojlantirish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, Institut xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, korrupsiyaga qarshi profilaktik

chora-tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta’minlashdan iborat.

24. Quyidagilar Bo‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olish, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, maishiy korrupsiyaning oldini olish, shu jumladan, raqamlashtirish, byurokratiyani qisqartirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish; ichki hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish va yakunlari bo‘yicha aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bekor qilish bo‘yicha taklif kiritish;

davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish, davlat xaridlari bo‘yicha preventiv o‘rganishlarni amalga oshirish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan muntazam ravishda tegishli vazirlik va idoralarga hisobot taqdim etib borish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni olib borish;

tegishli soha va tarmoqda korrupsiyaviy xavf-xatarlar ro‘yxatini shakllantirish, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqib, tasdiqlanishini ta’minlash;

Institutda korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni amalga oshirish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar kiritish;

mehnat jamoasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik va odob-axloq qoidalariga rioya qilish bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ijobiy tajribalarni ommalashtirish va joriy etish yuzasidan takliflar kiritish.

25. Bo‘lim asosiy vazifalarini amalga oshirish maqsadida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

Institutning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun birinchi rahbarga kiritadi;

Institutning faoliyatiga oid ichki hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi;

Institut tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar loyihalarini Institut tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtai nazaridan baholaydi va xulosalar beradi;

Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan aniq takliflarni tegishli vazirlik va idoralarga kiritib boradi;

Institutda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, ularning natijalari bo‘yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va tashkilotda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini yaratadi;

Institut tomonidan o‘xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida davlat hokimiyatining boshqa organlarida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo‘nalishlari haqida ma’lumot to‘playdi;

maxsus axborot aloqa kanallari orqali Institut xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va ularni belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishini ta’minlaydi;

Institutda yuritiladigan xizmat tekshiruvlari reyestri yoki o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlarini ro‘yxatga oladigan boshqa tegishli hujjatda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo‘yicha ma’lumotlarning to‘g‘ri va to‘liq aks ettirib borilishini

nazorat qiladi; davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvini tahlil qilishda va Institut bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

Institut xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

Korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo‘ljallangan maxsus axborot aloqa kanallarining faoliyat natijalarini tahlil qiladi va tahliliy materiallarni Institut xodimlariga yetkazadi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlarida Institutga yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ISO 37001:2025 Korrupsiyaga qarshi xalqaro standarti talablariga mosligini ta’minlaydi;

O‘quv rejaga muvofiq Institutning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha seminar-treninglarning o‘tkazilishini hamda ularda xodimlarning ishtirok etishini nazorat qiladi;

Institut tizimi xodimlari va fuqarolar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha targ‘ibot tadbirlarida ishtirok etadi; Institutning rasmiy veb-saytidagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish” bo‘limi hamda ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalariga joylashtirilgan ma’lumotlarning yangilanib borilishini ta’minlaydi;

Institut tizimidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va tashkilotning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;

Institutdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar bo‘yicha xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish tashabbusini ilgari suradi va unda ishtirok etadi;

Odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va maqbulligini tekshiradi; amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo‘yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

Institutdagi korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul xodimlar bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ishlarni tashkil etish va xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etadi;

Institut faoliyati uning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlariga hamda xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan tekshiruvlar o‘tkazadi;

Institut faoliyatidagi korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida xodimlar, talabalar va ularning ota-onalari orasida so‘rovlar o‘tkazadi;

Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo‘yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibligi va yetarliligini nazorat qiladi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Institutda korrupsiya faktlari yuzasidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma’lumotlarni tahlil qiladi;

har chorakda, keyingi oyning birinchi o‘n kunligida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to‘g‘risidagi oylik hisobotni tegishli vazirlik va idoralarga taqdim etadi;

professor-o‘qituvchi, xodimlar va talaba-yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

qonunchilik hujjatlari bilan Institut zimmasiga yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha vazifalarga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to‘g‘risida so‘rovlar yuboradi va ularning so‘rovlariga javob berishda ishtirok etadi;

Institutning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi; korrupsiyaviy xatti-harakatlarni bartaraf qilish yoki korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi;

o‘z vakolati doirasidagi yirik investitsiya loyihalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekspertiza qiladi va baholaydi; ichki audit xizmati bilan birgalikda asosiy vositalar bo‘yicha davlat xaridining qonuniyligini o‘rganadi va tegishli yozma xulosalarini xarid komissiyasiga taqdim etadi;

Institut tomonidan barcha turdagi ichki buyruq va qarorlarni shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror, Farmon va farmoyishlari bilan tashkil etilgan komissiya va kengashlarning bayonnomalarini “E-qaror” tizimi orqali qabul qilinishini (tizimda e’lon qilinishini) nazorat qilib boradi;

Institut faoliyati bilan bog‘liq funksiyalarni amalga oshirishda byurokratik holatlar va korrupsiyaviy omillarni aniqlaydi;

Institutda mavjud byurokratik to‘siqlar va korrupsiyaviy omillar bo‘yicha axborot-tahliliy ma’lumotlar tayyorlaydi, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, shu jumladan sohada raqamlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi va taqdim etadi;

Institutda korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni amalga oshirish va korrupsiyaviy xavf-xatar omillarini bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

ichki hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish hamda ekspertiza yakunlari bo‘yicha aniqlangan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omilni bartaraf etish choralarini ko‘radi yoki bekor qilish bo‘yicha Institut birinchi rahbariga taklif kiritadi.

26. Bo‘lim xodimlari zimmasiga ularning vazifalaridan kelib chiqmaydigan topshiriqlar yuklatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bo‘lim xodimlarini turli komissiya va ishchi guruhlar faoliyatiga jalb etish ta’qiqlanadi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar va/yoki manfaatlar to‘qnashuvi holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvini o‘tkazish bo‘yicha komissiya, odob-axloq komissiyasi hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘rganish bo‘yicha tuzilgan ishchi guruhlar bundan mustasno.

27. Bo‘lim (xodimlari) o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda tegishli vazirlik va idoralarning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalariga bo‘ysunadi va ularning oldida hisobdor bo‘ladi.

28. Bo‘lim va xodimlarining vazifalari, funksiyalari mazkur Namunaviy nizom talablari asosida ishlab chiqiladi va Institut birinchi rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Bunda, Institutning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinishi mumkin.

7-bob. Bo‘limning huquq va majburiyatlari

29. Bo‘lim o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega: o‘zi faoliyat yuritayotgan Institut prorektorlari, professor-o‘qituvchilari, xodimlari, shu jumladan mazkur lavozimlarga nomzodlar hamda talaba o‘quvchilaridan

ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma’lumotlarni so‘rab olish;

xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Institut prorektorlari, professor o‘qituvchilari, xodimlari va talaba-o‘quvchilaridan (keyingi o‘rinlarda - xodimlar va talabalar) xodimlar va talabalardan zarur yordam so‘rash va olish; xodimlar va talabalari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish;

Institutning birinchi rahbariga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish; o‘z faoliyati va vakolati doirasida xodimlar va talabalariga yozma ko‘rsatmalar, topshiriq va tavsiyalar berish;

Institutning korrupsiyaga oid majlislarida ishtirok etish; tegishli tekshiruvlarni o‘tkazish, hujjatlarni talab qilish, xodimlar va talabalardan yozma tushuntirishlar olish. Shuningdek, Bo‘lim o‘z vazifa va majburiyatlari doirasida amaldagi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

30. Bo‘lim quyidagi majburiyatlarga ega: ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan zimmasiga yuklatilgan vazifalarni zarur darajada va samarali bajarish;

qonunchilik hujjatlari talablariga qat’iy rioya qilish va o‘z vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;

Institut tizimida jinoyat alomatlari, xususan korrupsiya holatlari aniqlanganligi to‘g‘risida zudlik bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Institut birinchi rahbariga, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim qilish;

Institutning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, odob-axloq qoidalarining korrupsiyaga oid qismining buzilganligi fakti yuzasidan Institut birinchi rahbariga ma’lumotnomalar kiritish;

har oy yakuni bo‘yicha keyingi oyning birinchi o‘n kunligida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to‘g‘risidagi oylik hisobotni Institut birinchi rahbariga taqdim etish.

31. Bo‘lim xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid mo‘ljallangan o‘quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglarda ishtirok etadi. O‘quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglar tegishli vazirlik va idoralar yoxud boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilishi mumkin.

8-bob. Yakuniy qoida

32. Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlariga asosan javob beradi.

OKS2585